https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Oppoqxo‘jayev Xojixuja Azimjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
xojixuja1506@gmail.com

0009-0007-9139-6934

Tel: 972150598

INKLYUZIV TA’LIM JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN ANTROPOSENTRIK YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALASH BO‘YICHA DARS TUZILISHI VA PSIXOLOGIK SEMINAR TRENINGI

Annotatsiya

Maqolada innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida inklyuziv talim jarayonida b oshlang‘ich sinf o‘quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash bo‘yich darsning tuzilishi, dars mashg‘ulotida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan metodikalar va psixologik seminar treninglar haqida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar

inklyuziv ta’lim, antroposentrik yondashuv, sinf-dars, mehr barglari, ta’lim hamma uchun, didaktik material, metodika.

LESSON STRUCTURE AND PSYCHOLOGICAL SEMINAR TRAINING ON EDUCATION OF PRIMARY STUDENTS IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION

Annotation

The article presents the structure of the lesson, the methods that can be used in the lesson, and psychological seminar training on educating primary school students in the process of inclusive education based on innovative educational technologies.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Keywords

inclusive education, anthropocentric approach, classroom, leaves of love, education for all, didactic material, methodology.

СТРУКТУРА УРОКА И ПСИХОЛОГО-СЕМИНАРА ПО ВОСПИТАНИЮ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье представлены структура урока, методы проведения урока и психолого-семинарского тренинга по воспитанию младших школьников в процессе инклюзивного образования на основе инновационных образовательных технологий.

Ключевые слова

инклюзивное образование, антропоцентрический подход, класс, листья любви, образование для всех, дидактический материал, методика.

KIRISH

Innovatsion ta’limga ixtissoslashgan ta’lim tizimi dars jarayonini qiziqarli qilish bilan birga, ta’limni insonparvarlashtirishga, demokratlashtirishga imkon yaratadi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari qo‘llaniladigan darslar markazida ta’lim oluvchi shaxsi turishi va ta’lim oluvchilarda antroposentrik yondashuvga hos insonparvarlik, hamkorlikda ishlash, hamdardlik, bag‘rikenglik kabi hislatlarning shakllanishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta’lim sharoitida insoniylik fazilatlariga yo‘g‘rilgan o‘quv topshirilarining ishlab chiqilishi, savollar tuzilishi va maqsadli yo‘nalishlarning belgilab olinishi antroposentrik yondashuv mohiyatini ta’lim oluvchilarga tezroq singdirilishiga yordam beradi.[1;16]

Mazkur tadqiqotimizni amalga oshirish chog‘ida tadqiq etilayotgan ilmiy-pedagogik muammoning mavjud holati nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o‘rganildi. Ana shu maqsadda inklyuziv ta’lim o‘quvchilari o‘rtasida kichik-suhbat, anketa so‘rovini tashkil qilish, ularni antroposentrik yondashuv namoyon bo‘ladigan turli hayotiy vaziyatlarni hal qilishga jalb etishga imkon beradigan metodika shakllantirildi.

METODOLOGIYA

Ma’lumki ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi shaxsi turadi. Inklyuziv ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilar uchun sog‘lom pedaogik hamda psixologik muhitni tashkil etish, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni turli ko‘ngilsizliklardan himoya qilish, uning individual hususiyatlarini namoyon qilishi uchun barcha zarur imkoniyatlarni ishga solish inklyuziv ta’limning asoslaridan biridir. [2;22]. Shunday ekan inklyuziv ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash quyidagi texnologik yo‘nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1.**Insoniylik texnologiyasi.** Bu texnologiya insonparvarlikka yo‘naltirilganligi bilan, psixoterpevtik yo‘nalishi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu texnologiyaning mazmuni ta’lim oluvchini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, o‘zining individual hususiyatlarini namoyon qilishga ko‘maklashish va qobilyatlarini sayqallashishiga yordam berishdan iborat. Ta’lim oluvchiga nisbatan o‘zaro hurmat, uning qadr-qimmati, shanini hurmat qilish va tahqirlashlashdan vos kechish bilan harakterlanadi.

2. **Birgalikda ishlash**. Ushbu texnologiya birgalikda ishlash, tenglik, hamkorlik, jamoaviylik, demokratik g‘oyalar asosiga qurilgan. Bunda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi va ko‘zlangan maqsadga birgalikda erishadilar.

3. **Erkin muhit.** Bunda inklyuziv ta’lim sharoitida ta’lim oluvchiga erkinlik beriladi. Unga kim bilan o‘tirish, mavzu mazmuniga erkin fikr bildirish kabi o‘zining shaxsiy hohish-istaklari bayon etadi. Bu jarayonda ta’lim bevosita ta’lim oluvchilarning ichki ehtiyoji bilan birgalikda uyg‘unlik kasb etadi.[3;2]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqot ishini olib borish davomida inklyuziv ta'lim sinflariga mo'ljallangan **"Ta'lim – barcha uchun"** mavzusidagi texnologik loyiha tayyorlandi.

Dars mavzusi: "Ta'lim – barcha uchun".[7;16]

Darsning maqsadi: o'quvchilarda ta'lim olish huquqi barcha uchun teng ekanligi, ta'lim olishning huquqiy asoslari, ijtimoiy hamdardlik, tenglik, kamsitmaslik kabi antroposentrik yondashuv sifatlarini shakllantirish.

Kutilayotgan natija: sog'lom o'quvchilarda imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan do'stlik, hamjihatlilik, totuvlik, odamiylik, mehr-oqibatlilik, insonparvarlik sifatlarini shakllantirish.

Dars jarayonida hal qilinadigan ta'limiy vazifalar:

1. Mavzuga tegishli matnlarni o'qish.

2. Inklyuziv ta'lim o'quvchilariga odamiylik, insonparvarlik, do'stlik, mehr-oqibat, totuvlik, hamjihatlilik kabi antroposentrik yondashuv sifatlariga oid ma'lumotlarni berish.

3. **"Hamjihatlik – yengilmaslik kafolati"** nomli vaziyatli topshiriqlarni bajarish.

4. **"Mehr barglari"** metodik o'yini vositasida hamjihatlik, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Dars shakli: tashxislovchi dars.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: tashxis, introspeksiya (o'z-o'zini tahlil), tushuntirish, improvizatsiya (avvaldan tayyorgarliksiz nimanidir tuzish yoki to'qish).

Darsda foydalaniladigan vositalar: Ko'rgazmali vositalar, yozuv doskasi, mel, daraxt barglari chizilgan oq qog'oz, ruchka.

Darsda foydalanilgan texnologiya: "Mehr barglari" metodik o'yini, interfaol ta'lim texnologiyalari.

Dars rejasi:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1. Mavzuga oid ma’lumotlarni yetkazish.

2. Mavzuga oid asosiy tushunchalar mohiyatini yoritish.

3. “Hamjihatlik – yengilmaslik kafolati” nomli vaziyatli topshiriqlarni bajarish.

4. “Mehr barglari” metodik o‘yini vositasida hamjihatlik, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Dars jarayonining borishi:

I. Mavzuga oid ma’lumotlarni yetkazish. Dars davomida o‘quvchilarga ta’lim olishning huquqiy asoslari, ta’limning barcha uchun teng ekanligi, ta’limning ijtimoiy tarbiyalovchi funksiyasi, inklyuziv ta’limning mohiyati va yutuqlari haqida ma’lumotlar yetkazildi.

II. Mavzuga oid asosiy tushunchalar mohiyatini yoritish. Dars davomida quyidagi tayanch tushunchalarining mazmun-mohiyati yuzasidan o‘quvchilarga ma’lumotlar berildi:

Odamiylik – O‘zgalarga yordam berish.

Oqibat – Insonlar o‘rtasidagi munosabat. Yaxshi va yomon kunda ham birga bo‘lish.

Mehrli bo‘lish – do‘stlari, yaqinlari va jamiyat ishtirokchilari bilan mehrli munosabat.

Insoniylik – haqiqiy insonga xos fazilat.

Hamjihatlilik – ma’lum maqsad yoki intilushga ega insonlarning birgalikdagi faoliyati.

Do‘stlik – maqsadi, fikrlari va intilishlari bir maqsad yo‘lida birlashgan insonlar munosabati.

III. “Hamjihatlik – yengilmaslik kafolati” nomli vaziyatli topshiriqlarni bajarish. Dars davomida ta’lim oluvchilar e’tiboriga quyidagi vaziyatli topshiriqlar havola qilindi:

1-vaziyat. Pedagog sinf xonasiga kirdi va narigi mahalla maktabiga Toshkent shahridan imkoniyati cheklangan o‘quvchi kelganini, mustaqil yurishda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qiynalayotganligini, shu uchun hech qaysi o‘quvchi u bilan do‘stlashishni, birga o‘tirishni, dars tayyorlashni hohlamayotganligini, aksincha, uni kalaka qilishayotganini, qo‘rs muomilada bo‘layotganliklarini, bolaning maktabga moslasha olmayotganini, ta’lim olish hohishi so‘nganini aytdi. Pedagog o‘quvchilarga shunday savollarni berdi:

1. Bola o‘qiyotgan sinfning o‘quvchilariga qanday maslahat berasizlar?

2. Nima uchun imkoniyati cheklangan o‘quvchini kalaka qilish yomon?

3. Agar siz ana shu o‘quvchini o‘rnida bo‘lsangiz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

2-vaziyat. Vaziyat bayoni: Siz umumiy ovqatlanish joyida tushlik qilayotgan edingiz. Mazkur yemakxonaga qo‘llari yo‘q bola va onasi kirib keldi. Aksiga olib o‘tirish uchun bo‘sh stol mavjud bo‘lmaganligi uchun Bir ayol kishi o‘tirgan stol yoniga kelib o‘tirishga izn so‘rashdi. Ayol esa ularni kamsitib, haqoratlay boshladi. Ular hijolatomus tarzda yemakxonani tark etishdi. Aniqlashtiruvchi savollar quyidagicha:

1. Ushbu vaziyatda stolda o‘tirgan ayol to‘g‘ri ish qildimi?

2. Nogiron farzandning onasi farzandi haq-huquqlari uchun kurashishi mumkinmidi?

3. Siz anashu ona va bolasini yoningizda o‘tirishga taklif qilgan bo‘larmidingiz?

4. Atrofadilar haqoratlagan ayolga nega e’tiroz bildirishmadi?

Biroq, vaziyatli topshiriqlarni bajarishda bir qator shartlarga amal qilinishi lozim. Jumladan:

1. O‘quvchilarga taqdim etilayotgan vaziyatning aniq ifodalanishi.

2. O‘quvchilarga mazkur vaziyat yuzasidan fikr yuritishlariga imkon yaratish.

3. O‘quvchilarning vaziyatga nisbatan fikrlarini diqqat bilan eshitish (fikrlarini yakunlamagunga qadar ularni tinglash)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

4. Agarda vaziyatga nisbatan yondashuv qoniqarli emas deb topilsa, javobni mazmunan boyitishga imkon beruvchi yordamchi savollarni berish.

5. O‘quvchi yoki o‘quvchilar tomonidan vaziyat noto‘g‘ri talqin qilinsa, ularni tanqid qilmaslik, ozgina bo‘lsa-da, yutuq mavjud bo‘lsa, ularni rag‘batlantirish (maqtash, sovg‘alar berish, v.h.k).

6. O‘quvchilarni ta’lim olishga undash, shaxsiy fazilatlarini namoyon etishlari uchun ta’lim muhitini yaratish.


7. O‘quvchilarni bir-birlarini fikrlarini tinglashga va jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish.

IV. “Mehr barglari” metodik o‘yini vositasida hamjihatlik, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Dars jarayonida o‘quvchilarga ushbu o‘yin taklif qilindi: [4;24]

“Mehr barglari” o‘yini

Bu metodik o‘yinning sharti har bir o‘quvchiga maxsus yasalgan barglar tarqatib chiqiladi va barglarga do‘stlari uchun tilak yozish topshiriladi. O‘yin yakunida tilaklar aylana shaklada to‘planadi. Pedagog tomonidan bitta savol yoziladi va savol yozilgan barg markazga qo‘yiladi. Savolga javobni topgan 8 ishtirokchi o‘yinni davom ettiradi va bu jarayon ikki ishtirokchi qolgunicha davom etadi. Yakunda qolgan ishtirokchilar g‘olib deb topiladi va 1 hafta davomida barcha vazifalarni birgalikda bajaradilar. O‘yindan ko‘zlangan maqsad barchani bahamjihatlikka o‘rgatish va imkoniyati cheklangan o‘quvchini ijtimoiylashishiga ko‘maklashishdan iborat.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



Kutilayotgan natijaga erishilganlik: o‘quvchilarda antroposentrik yondashuv sifatlari: hamkorlikda ishlash. do‘stlik, birdamlik, inoqlik, odamiylik, oqibatlilik, kechirimli bo‘lish, insoniylik sifatlarining shakllanganligi.

Markur darsning yuqorida ko‘rsatilgan texnologik yondashuv asosida amalga oshirilishi inklyuziv ta’lim o‘quvchilari tomonidan “Ta’lim – barcha uchun” mavzusini samarali o‘zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida inklyuziv ta’lim o‘quvchilarida insoniylik, mehr-oqibat, hamdardlik, o‘zaro yordam kabi antroposentrik yondashuv komponentlarni shakllantirishda “Suratdagi yashirin sir” nomli foto-kollajni o‘quvchilar htiyoriga taqdim etdik. [5;10]

“Suratdagi yashirin sir”

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



Mazkur foto kollaj asosida o‘quvchilarga turkum savollar berilib, ushbu suratlarga o‘z nuqtai nazaridan ta’rif berishlari so‘raldi. Aksariyat o‘quvchilar javoblaridan anglashiladiki, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga nisbatan bag‘rikenglik, sabrlilik, o‘zaro ko‘mak, insoniylik kabi antroposentrik yondashuv komponentlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jihat ularni jamiyatlashuviga, hayotda o‘z o‘rnini topishlariga va katta yutuqlarga erishishlariga turtki bo‘lib hizmat qilishi o‘quvchilar tomonidan ta’kidlandi.[8;164]

Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarda antroposentrik yondashuvni takomillashtirishda psixologik treninglarning ham o‘rni yuqori. Chunki, bugungi ta’lim jarayonida psixologik trening o‘zaro ta’sir ko‘rsatish metodi sifatida amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Ijtimoiy-psixologik trening muloqotni, muomalani muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bilim tizimidir.

Psixologik-treninglar inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiylashishiga qaratilgan o‘yin va mashqlarning uzluksizligini tashkil etadi. O‘quvchilar o‘zaro munosabatga kirishish orqali munosabat o‘rnatish, insoniylik, huquqlari, erkinlilari va burchlarini tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O‘quvchilar bir-birlari bilan muloqotga kirishgan sari, o‘zaro munosabatlar tajribasi ham ortib boradi. Natijada, umumiylik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar ham paydo bo‘ladi. Munosabatdan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘zaro til topishish, bir-birlarini to‘g‘ri tushunish ekanligini anglab yetadilar. [6;23]

Biz tadqiqot ishini olib borish davomida ilmiy asoslanganlikka erishish uchun psixologik treningning bahs-munozara metodlaridan ko‘proq foydalandik. Bu metodning pedagogik-psixologik va ijtimoiy ahamiyati shundaki, unda har bir o‘quvchining o‘z nuqtayi nazarini ma’lum qilishga tashabbuskorlik, muloqotdagi bilimdonlik hamda aqliy potensialidan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Ya’ni bu turkum metodlarining vazifalari ham uning ahamiyatli maqsadlaridan kelib chiqadi:

9. trening ishtirokchilarini mavjud vaziyatlarni tahlil qilishga, asosiy, muhim narsani nomuhimdan ajratishga va muammoni to‘la anglashga o‘rgatadi;

10. o‘zgalar fikri, so‘zlash mahoratini kuzatish va shu asosida ular bilan hamkorlikda ishlashga undaydi;

11. muammoga taalluqli rang-barang qirralarni ajratish, ularni mohiyatini anglash imkoniyatini yaratadi;

12. muammoning turli muqobil yechimlari bo‘lishi mumkinligini ifodalaydi.

Tadqiqotimiz davomida biz “O‘zingizni anglang”, “Do‘stlik eng oliy saodat”, “Yordam berish insoniylik fazilati”, “Barcha ta’lim olishi lozim”, “O‘yin orqali do‘stlashamiz” kabi psixologik treninglarni olib bordik. Natijada inklyuziv ta’lim o‘quvchilarida antroposentrik yondashuv komponentlarining qaror topganligini ko‘rdik.

HULOSA

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni ta’lim olishi, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, reablitatsiya va korreksiyalash, “Ta’lim barcha uchun” tamoyilini amalga oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, inklyuziv ta’lim o‘quvchilarida antroposentrik yondashuvni shakllantirish jarayoniga metodik jihatdan to‘g‘ri yondashish kutilgan natijalarni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

olishga imkon beradi. Shu sababli tadqiqot ishini olib borish chog‘ida inklyuziv ta’lim o‘quvchilarida antroposentrik yondashuv sifatlarini samarali shakllantirish imkonini beradigan maxsus metodikaning ishlab chiqishga va takomillashtirishga ustuvor vazifa sifatida qaraldi. Ta’kidlash lozimki, maxsus metodikaning innovatsion xarakterga ega texnologik elementlar bilan boyitilgani kutilgan natijalarni qo‘lga kiritishga yordam berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60-son. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son
3. Toshpo‘latova F. “O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limning joriy qilinishi”. Jizzax. 2011. – 2-b
4. Бабаева Е.А. Готовноть к обучению в школе детей-билингов с речевой потологией Афто.дисс.к.п.н.-М.:1992.-24-с
5. Maqsudova N.A. “Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv sharoitda ishlashga tayyorlash mexanizmlari”. Ped.fan.bo‘y.fal.dok.diss. Namangan.: 2023. – 10-b
6. Ture Yonson “Inklyuziv ta’lim”- “Operyshn Mersy”. T.:2023. -23-b
7. Subanova.B.Q. Bo‘lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish. Ped.fan.bo‘y.fal.dok.diss. Toshkent.: 2023. – 16-b
8. Jadrina M. (2007). School education in kazakhstan: Possibilities of on children’s equal approach to education. Режим доступа: https://www.ibe.unesco.org/fileadmin/userupload/lnclusive_Education